


**O'QUVCHILARNING AQLIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTELEKTUAL O'YINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

*Ergasheva Feruza*

*Al-Buxoriy I kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini hal qilish har bir fan o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir. O'qituvchilar bu vazifani amalga oshirish orqali o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirish, ularda o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalay olish, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, bir-birini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan fikr-mulohazalar orasidan eng maqbul yechimini tanlab olish ko'nikmalarini shakllantirishiga erishadi. Shunday ekan har bir fan o'qituvchisi ta'lim jarayonida dars loyihasini mukammal darajada tashkil etishi, har bir darsga alohida tayyorgarlik bilan kirishi va shu bilan birgalikda ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron metodik vositalardan foydalanishi lozim bo'ladi. Bu esa tashkil etilgan darsning sifat-samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** uzluksiz ta'lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, elektron metodik vositalar, intellekt, klasster, kirishuvchanlik.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori(2019 yil 30 avgust,PQ-4433-son) da qarori iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Intellektual o'yinlar o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmasdan, ularning fikrlash, xulosalash, o'z-o'zini namoyish eta olish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, jamoaga kirishuvchanlik kabi xislatlarini shakllantiradi. Intellektual o'yinlar nafaqat o'qitishning amaliy yo'nalishi kuchayishiga, balki o'quvchilarning dars jarayonida o'zlashtirayotgan nazariy bilimlarini mustaqamlanishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, intellektual o'yinlarni tashkil etishdan oldin bu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bunda asosiy e'tibor mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan intellektual o'yinlardan mavzuga moslarini tanlash, mashg'ulotning qaysi bosqichida ularni amalga oshirilishini belgilash, o'yinning shartini o'quvchilarga aniq tushuntirish kabilarga qaratiladi. Garchi, intellektual o'yinlar yangi bilimlarni chuqur bermasada, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi nazariy bilimlarini yanada rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, muammoga ijodiy yondoshish layoqatlarini rivojlantirishda intellektual o'yinlardan unumli foydalanish ijobiy samara beradi. Intellektual o'yinlarning asosiy maqsadi – o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash qobiliyatlarini oshirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat. Quyida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi intellektual o'yinlar haqida fikr yuritamiz.

***Quyida intellektual o'yinlardan namunalar keltiramiz:***

**“Hozir javoblik” o'yini.** Ushbu o'yinda o'qituvchi o'yin ishtirokchisining pedagogik bilim, tushunchalarini qay darajada o'zlashtirib olganligini sinab ko'radi. O'yinning shartiga ko'ra, boshlovchi tomonidan aytilgan pedagogik iboraning aksini o'quvchi yoki talaba tomonidan aytilishi zarur. O'yin jarayonida o'quvchi tomonidan aytilgan to'g'ri va noto'g'ri javoblar hisobga olib boriladi hamda reyting tizimi shkalasi asosida baholab boriladi.

**“Xotira mashqi” o'yini.** Intellektual o'yinning bu turi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarni mustahkamlanishida muhima hamiyat kasb etadi. Mazkur o'yinda o'qituvchi tomonidan ma'lum bir mavzu yoki bo'limga oid tushunchalar o'quvchilarga yetkaziladi. O'quvchilar esa ma'lum bir vaqt (daqiqalar) orasida og'zaki yozma ravishda xotiralarga suyangan xolda ularni bayon etishlari zarur. Macalan:

**“Klasster” (tarmoqlanish) o'yini.** O'yinning shartiga ko'ra o'qituvchi ma'lum bir umumlashgan pedagogik tushunchani doskaga yozadi, xamda o'quvchilarga mazkur tushunchani ifodalovchi xususiy tomonlarini aniqlash topshiriladi. Masalan:

o'quvchi, maktab, bilim, amaliyot, pedagog kabilar.

**Intellektual uyinlarning pedagogik maqsadga muvofiqligi** – eng qobiliyatli, bilimdon bolalarning ochilish imkoniyatidir. Intellektual-kognitiv o'yinlar – bu ijodiy muloqot, yangi shakllarni qidirish va nafaqat intellektual faoliyatda, balki ijodiy faoliyatning boshqa turlarida ham o'zini namoyon qilish imkoniyatidir. O'yinning o'zaro ta'siri munosabatlarning yangi normalarini, xulq-atvor tamoyillarini shakllantirishga olib keladi, o'zini-o'zi tahlil qilish va refleksiya undaydi.

Mazkur kullanmada jamoaviy o'yinlar ko'zda tutilgan va shuning uchun bolalarda nafaqat ma'lum bilimlarni, balki muloqot qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi, guruhda ishlash dialogini o'rganishga imkon beradi. Intellektual o'yinlar hamkorlik, o'zaro ishonch va hurmat muhitini yaratadi.

Bolaning ijodkorlik jarayonlarini boshqarish: fantaziyaga berilish, qonuniyatlarni tushunish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish asosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va aql-zakovatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'quvchiga ijodiy fikrlashga asoslangan ko'plab fazilatlarni kashf etish imkonini beradi; o'quvchilarni intellektual faoliyatlarida yanada xotirjam va erkin bo'lishlariga yordam berish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular uchun “muvaffaqiyat vaziyati”ni yaratadi.

**Maqsad:** bolalar va o'smirlarning aqliy, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy-pedagogik yo'nalish orqali jamiyatda faol ijtimoiylashuv uchun aqliy va kognitiv faoliyatga jalb qilish.

**Vazifalar:**

**Ta'limiy:**

- intellektual-kognitiv o'yinlar (IKO') ni o'ynashni va turli xil jumboqlarni yechishni o'rgatish;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini aqliy, ijodiy muloqot orqali IKO' ni tashkil etish va o'tkazish orqali tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning mustaqil kognitiv faoliyat tajribasini shakllantirishga ko'maklashish.

**Tarbiyaviy:**

- xulq-atvor va muloqot me'yorlari bilan tanishtirish;

- kattalar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish;

- bolalarda hamkorlik va jamoaviy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi:**

- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

- kognitiv faoliyatning asosi sifatida qiziquvchanlikni rivojlantirish;

- qat'iyatlilik, mustaqillik, xolislik va yetakchilik fazilatlari kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish.

Bu umumiy rivojlanish dasturining shu sohada mavjud bo'lgan xususiyatlaridan farqli tomoni shundaki, uning o'zgaruvchanligi o'quvchilarga boshlang'ich darajadagi kompetentlikdan foydalanib, faoliyat yo'nalishini tanlashni aniqlash va mashg'ulotlarni yanada murakkab bosqichda davom ettirish imkonini beradi. Bolalarning taxmin qilinadigan faoliyatining o'ziga xos xususiyati materialni taqdim etishning asta-sekin murakkablashishi (o'qituvchi tomonidan bevosita o'quvchilar bilan o'yin o'ynashdan o'quvchilar tomonidan aqliy va kognitiv o'yinlarni tashkil etish va metodikasini tushuntirishgacha) bilan bog'liq. Dasturdagi amaliy mashg'ulotlar interfaol o'qitish usullari va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq. Dastur turli xil pedagogik vositalar: aqliy jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan o'yin va mashqlar, mayda motorika, nutq, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, kommunikativ o'zaro ta'sir ko'nikmalari va jamiyatda moslashishdan keng foydalanishga qaratilgan.

Intellektual-kognitiv o'yinda muhim omil – intellektual raqobatning elementi bo'lib, o'quvchining faolligi oshganda, g'olib bo'lish istagi paydo bo'ladi. Shuning uchun biz viktorinalar, turnirlar, tanlovlar va sayohat kabi dars shakllaridan foydalanamiz. Musobaqa lahzasi o'quvchiga o'z imkoniyatlarini baholashga, g'alaba qozongan taqdirda esa – o'z tengdoshlari oldida o'zini namoyon qilishga imkon beradi. O'yin faoliyatini tashkil etishdagi asosiy vazifa – barcha bolalarni o'yinga jalb qilish, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish va muhim xususiyatni aniqlash, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, analiz va sintez qilish kabi aqliy operatsiyalarni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, bolalarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, intellektual va axloqiy kamolotga erishishda ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish sodir bo'ladi.

Aksariyat olimlarning fikricha, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammoli o'qitishsiz rivojlantirilmaydi. Muammoli ta'lim texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda multimedia taqdimotlarining ham o'rni katta.

**Multimedia taqdimotlarining axamiyati** - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia-gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Ta'lim jarayonlarining multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o'tilishi o'qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug'diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovoqli dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko'rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan o'qituvchi uchun yangilik bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o'ziga jalb qiladi va mavzuni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar samarali bo'lishi bilan birga ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishida ahamiyati katta. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa ta'lim oluvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

***Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:***

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

### **IQ test natijasi nima?**

IQ so'zi inglizcha "Intellectualquotent" olingan bo'lib, bor bilimlar va aqliy rivojlanish darajasini turli metodik testlar orqali ifodalanishini bildiradi.

Bolalarda intellektual rivojlanish darajasini bilish uchun birinchi IQ test fransuz psixologi A.Bine tomonidan 1903 yil ishlab chiqilgan. Xar bir yosh uchun bilim va ko'nikmalar darajasi 100 deb qabul qilingan. Shu standartga monand aqliy rivojlanish yoki rivojlanishdan ortga qolish. IQ termini Avstryalik psixolog V.Shtern tomonidan 1911 yil kiritilgan. Masalan: AQShda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar sotsial psixologik tayyorlik darajasiga IQ topshirganlaridan so'ng qabul qilinadilar. IQ darajasini aniqlovchi testlar savollariga og'zaki javob berishni talab qiluvchi va manipular masalalar (rasmning yetishmayotgan qismini to'ldirish) kiritilishi mumkin. Berilgan savollarga aniq belgilangan vaqt oralig'ida javob berish o'ta muhim hisoblanadi. Javoblar oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholanadi. Ballarning umumiy yig'indisi avvaldan ishlab chiqilgan IQ ko'rsatkichlari bo'yicha belgilanadi. Baholash paytida sinaluvchining yoshi inobatga olinadi.

Ko'pchilik psixologlar fikricha IQ test sinaluvchining mavjud bilimini baholaydi.

Har bir test uchun qat'iy vaqt 30 minut belgilangan. Baholash to'g'ri belgilangan javoblar soni bilan belgilanadi.

Test natijalari maksimal darajada to'g'ri belgilanishi uchun vaqt belgilash o'ta aniq bo'lishi lozim. Qo'shib berilgan bir necha soniya baholash jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Test paytida sinaluvchi chetdan xech qanday yordam olmasligi talab qilinadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Demchenko T. A. Xodimlarni boshqarish: zamonaviy yondashuvlar // Shaxs va mehnat. 2003 yil. № 8. 20-23-betlar.
2. Zmanovskaya E. V. Ijtimoiy nizolarning oldini olish va hal qilish. SPb., 2011 yil. 234 b.
3. Lukyanova LN Ta'lim muassasalaridagi nizolarning sabablari va ularni hal qilish yo'llari // Ta'limdagi ilmiy tadqiqotlar. 2011 yil. № 10. C. 4958.
4. Vikhanskiy O. S., Naumov A. I. Menejment. M.: INFRA-M, 2014. 576 b.
5. Nikolaeva A. A., Savchenko I. A., Stepanova O. S. Ta'lim muassasasida axborot xavfsizligi orqali nizolarning oldini olishda o'qituvchining roli // Ilmiy-pedagogik sharh. 2018 yil 2-son (20). 125-130-betlar.
6. Milushkina I. V. O'qituvchilar tarkibidagi nizolarni boshqarish texnologiyasi // Iqtidorli o'qituvchi. 2013 yil. № 4.
7. Potashnik M. M. Ta'lim sifatini boshqarish. M., 2000. 448 b.
8. Uchadze S. S. Ta'lim muassasasida pedagogik nizolarni boshqarish texnologiyalari // Ta'limni insonparvarlashtirish. 2012 yil. № 6. C. 24-28.